

Chet el fuqarolari bilan mehnat shartnomalari tuzishning o'ziga xos xususiyatlari

Umiddjon Ne'matjon o'g'li Yakubjanov
umidoqubjonov7@gmail.com
Toshkent davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolari bilan mehnat shartnomalari tuzish tartibi va ish beruvchiga taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlarning huquqiy asoslari o'rganilgan. Shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida chet el fuqarolari bilan mehnat shartnomalari tuzishning qonuniy asoslari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: chet el fuqarolari, mehnat kodeksi, mehnat shartnomasi, tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risidagi qonun.

Peculiarities of concluding employment contracts with foreign nationals

Umiddjon Nematjon o'g'li Yakubjanov
umidoqubjonov7@gmail.com
Tashkent State Law University

Abstract: This article examines the procedure for concluding employment contracts with foreign citizens in the Republic of Uzbekistan and the legal basis of the documents to be submitted to the employer. It also provides a comparative analysis of the legal basis for concluding employment contracts with foreign nationals in the Commonwealth of Independent States.

Keywords: foreign nationals, labor code, employment contract, law on external labor migration.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida chet ellik yuqori malakali va malakali mutaxassislarga talab va ehtiyoj oshib bormoqda. Jahon tajribasidan ma'lumki, dunyo davlatlarida asosiy malakali kadrlar boshqa davlatlardan mehnat immigratsiyasi orqali olib kelinadi. Misol sifatida aytadigan bo'lsak, Amerika Qo'shma Shtatlari har yili xorijiy ishchilarga 50 mingdan oshiq ishchi vizalar bergan holda malakali mutaxassislarni boshqa davlatlardan terib oladi. Har bir davlat o'z mehnat bozoridagi kadrlar bilan bog'liq bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi.

Yuritimizda shu maqsadlarni ko'zlagan holda ko'plab Prezident va Vazirlar mahkamasining qarorlari qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi "Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy maqomi to'g'risida"gi qonunning 15-moddasiga ko'ra, chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida mehnat qilish huquqi kafolatlanishi belgilangan. Ammo bizning mehnat qonunchiligimizda hali ham chet ellik mutaxassislar bilan mehnat shartnomalari tuzilayotgan paytda chet ellik fuqaro ish beruvchiga taqdim etishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yxati keltirilmagan. "Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonun loyihasida ham bunday qoidalar mavjud emas. Bu holat albatta amaliyotda ba'zi kamchilik va muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Amaldagi Mehnat kodeksining 80-moddasida xodim ishga kirayotgan paytda taqdim etilishi kerak bo'lgan hujjatlar ko'rsatilgan[1].

O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarini ishga qabul qilishda mehnat shartnomasi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Mehnat kodeksida belgilangan qoidalar asosida tuziladi. Ishga qabul qilishda ishga kirayotgan chet el fuqarosi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan teng ravishda quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim:

1) pasport yoki uning o'rnini bosadigan boshqa hujjatni, 16 yoshgacha bo'lgan shaxslar esa, - tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma;

2) mehnat daftarchasini, birinchi marotaba ishga kirayotgan shaxslar bundan mustasno. O'rindoshlik asosida ishga kirayotgan shaxslar mehnat daftarchasi o'rniga asosiy ish joyidan olgan ma'lumotnoma;

3) harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchi tegishinchi harbiy biletni yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma;

4) qonunchilikka muvofiq maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega shaxslargina bajarishi mumkin bo'lgan ishlarga kirayotganda oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtini tamonlaganligi to'g'risida diplomni yoxud mazkur ishni bajarish huquqini beradigan guvohnomani yoxud boshqa tegishli hujjatni taqdim etadilar.

Chet el fuqarosini shaxsini tasdiqlovchi hujjat - uning pasporti hisoblanadi. Bundan tashqari, ishga qabul qilish paytida chet el fuqarolari O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilish uchun berilgan guvohnomani ko'rsatishlari kerak[2].

Yangi tahrirda qabul qilinayotgan Mehnat kodeksining birinchi tahririda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning mehnat huquqlarini ta'minlash bo'yicha keng va to'liq qoidalar belgilangandi. Lekin ikkinchi tahrirdagi Mehnat kodeksi loyihasida chet ellik ishchi bilan mehnat shartnomalari tuzishda taqdim etish lozim bo'lgan hujjatlar olib tashlangan. Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi loyihasida 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasida yashash uchun maxsus guvohnomaga ega bo'lgan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda ishlash uchun

tegishli tasdiqnoma olgan chet el fuqarosi mehnat shartnomasi tuzish va ishlash huquqiga ega bo'lishi ko'rsatilgan. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun 18 yoshga to'lgan chet el fuqarosida Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan beriladigan tasdiqnoma mavjud bo'lishi lozim va tasdiqnoma chet el fuqarosiga xodim sifatida yakka tartibda mehnat munosabatlariga kirishish huquqini beradi. O'rindoshlik asosida mehnat qilmoqchi bo'lgan chet ellik fuqarolariga alohida tasdiqnoma olingandan so'ng o'rindoshlik shartlari asosida mehnat shartnomasi tuzishlari mumkin bo'ladi. Bu qoida chet ellik yuqori malakali mutaxassislarga va malakali mutaxassislarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Yuqori malakali mutaxassislar va malakali mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir tasdiqnoma olmasdan o'rindoshlik asosida ishlashlari mumkin.

Chet el fuqarolari bilan tuziladigan mehnat shartnomalari ularga O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat qilish huquqini beradigan tasdiqnoma muddatidan oshiq bo'lishi mumkin emas va tasdiqnoma muddati tugashi bilan chet el fuqarosi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi lozim.

Yuqori malakali mutaxassislar va malakali mutaxassislar chet ellik shaxslar bilan ishga olish va mehnat shartnomasi tuzishda boshqacha qoidalar belgilanadi. Ularga beriladigan tasdiqnomalar 3 yil muddatga, lekin miqdori har bir holda 3 yildan oshiq bo'lmagan muddatga cheksiz marta uzaytirish huquqi bilan beriladi. Bundan tashqari, yuqori malakali va malakali chet el mutaxassislari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda ham ularga 30 ish kun ichida O'zbekiston Respublikasi hududida ish qidirib qolish huquqi beriladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida, masalan, Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksi qoidalari bo'yicha chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'n sakkiz yoshga to'lganlaridan so'ng Rossiya Federatsiyasi hududida ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzgan holda ishlash huquqiga ega bo'ladi. Bunda chet el fuqarosida dastlabki navbatda Rossiya qonunchiligi bo'yicha belgilangan tartibda yashash uchun ruxsatnoma hamda ishlash uchun patent bo'lishi lozim.

Xorijiy fuqaro ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi tuzayotgan paytda Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 65- va 327.3-moddalarida belgilangan hujjatlarni taqdim etishi lozim[3].

Bu hujjatlar quyidagilardir:

1. Pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat;
2. Mehnat daftarchasi yoki mehnat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar;
3. Yakka tartibdagi (shaxsiylashtirilgan) buxgalteriya hisobi tizimida, shu jumladan elektron hujjat shaklida ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat;
4. Ma'lumoti va (yoki) malakasi yoki maxsus bilimlari mavjudligi to'g'risidagi hujjat;

5. Agar shaxs sudlanganligi va (yoki) jinoiy javobgarlikka tortilganligi yoki rehabilitatsiya asoslari bo'yicha jinoiy ta'qibning yo'qligi yoki tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

6. Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni shifokor retseptisiz iste'mol qilganlik yoki yangi potentsial xavfli psixofaol moddalarni iste'mol qilganlik uchun shaxsga ma'muriy jazo berilmaganligi yoki tayinlanganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma;

7. Rossiya Federatsiyasi hududida amal qiladigan ixtiyoriy tibbiy sug'urta shartnomasi (polis) bo'lishi lozim.

Chet el fuqarosi bilan mehnat shartnomasi tuzilayotgan paytda harbiy xizmatga borganligi yoki harbiy xizmatga majburligi to'g'risidagi hujjat so'ralmaydi.

Belarus Respublikasi Mehnat kodeksining 26-moddasi va Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risidagi qonuni 32-moddasiga ko'ra, ish beruvchi bilan xodim o'rtasida mehnat shartnomasi tuzilayotgan paytda chet ellik ishchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi lozim bo'ladi[4]:

1) shaxsni tasdiqlovchi hujjat; harbiy ro'yxatga olish hujjatlari (harbiy xizmatga majburlar va harbiy xizmatga chaqirilishi kerak bo'lgan shaxslar uchun);

2) mehnat daftarchasi, birinchi marta ishlaydigan va yarim kunlik ishchilardan tashqari;

3) ma'lumoti to'g'risidagi yoki ushbu ishni bajarish huquqini beruvchi o'qiganligi to'g'risidagi hujjatlar;

4) agar nogironligi bo'lsa nogironni rehabilitatsiya qilish bo'yicha individual dasturi;

5) daromadlar va mol-mulk to'g'risidagi deklaratsiya, sug'urta guvohnomasi, sog'lig'i to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma va ish bilan bog'liq boshqa holatlarni tasdiqlovchi boshqa hujjatlar,

6) mehnat qilish uchun maxsus tegishli tartibda olingan ruxsatnoma.

Bundan tashqari, mehnat shartnomasida quyidagi ma'lumotlar aks etishi lozim:

- mehnat shartnomasini tuzgan xodim va ish beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- xodim ishga qabul qilingan tarkibiy bo'linmani ko'rsatilgan ish joyi;
- xodimning bajaradigan mehnat funksiyasi;
- xodim va ish beruvchining asosiy huquq va majburiyatlari;
- mehnat shartnomasining amal qilish muddati (muddatli mehnat shartnomalari uchun);
- ish vaqti va dam olish rejimi;
- ish haqi.
- mehnat shartnomasini o'zgartirish, uzaytirish va bekor qilish tartibi;
- Belarus Respublikasiga ko'chib o'tish shartlari, immigrant ishchi uchun oziq ovqat, turar joy va tibbiy yordam ko'rsatilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Mehnat shartnomalari rus tilida yozma shaklda tuziladi. Mehnat shartnomalarini chet ellik fuqaroning ona tilida yoki u tushunadigan boshqa tilda tuzish mumkin.

Qirg'iziston Respublikasi Tashqi mehnat migratsiyasi to'g'risidagi qonunchiligiga ko'ra, chet el fuqarosi bilan tuziladigan mehnat shartnomalarining mazmuni quyidagilardan iborat bo'ladi.

- mehnat shartnomasi tuzilgan sana va joy;
- xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi va ish beruvchining nomi;
- yuridik shaxsning to'liq nomi, uning joylashgan joyi, ta'sis hujjatlarining raqami va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanasi;
- mehnat shartnomasining amal qilish muddati, haq to'lanadigan ishning xarakteri va joyi, mehnat sharoitlari va unga haq to'lash, shu jumladan tungi, qo'shimcha ish, dam olish va bayram kunlaridagi ish uchun haq to'lash;
- mukofotlar, nafaqalar va ish haqidan ushlab qolishlar miqdori;
- tomonlarning huquqlari, majburiyatlari, javobgarliklari, mehnat shartnomasini (kontrakti) bekor qilish yoki uzaytirish tartibi va shartlari;
- mehnat migranti va uning oila a'zolarini boshqa joyga ko'chirish, ovqatlanish, turar joy, tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- mehnat muhojirini ijtimoiy va tibbiy sug'urta qilish tartibi va shartlari;
- mehnat migrantining haq to'lanadigan mehnat faoliyati davomida sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash tartibi va boshqa ijtimoiy kafolatlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yangi tahriridagi Mehnat kodeksiga ish beruvchi bilan mehnat shartnomalari tuzishda chet el fuqarolari taqdim etadigan hujjatlar ko'rsatilmog'i lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/acts/-142859>
2. Gasanov M., Sokolov E. O'zbekistonning mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari. Savollar va javoblar // Ma'sul muharrir E.Xalilov. – T.; "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1999. [b – 439]
3. <http://www.pravo.gov.ru>
4. <http://www.kodeksy-by.com>